

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

AVLAKULOV AKTAM MAVLONKULOVICH

**TEXNOGEN SIVILIZATSIYANING IJTIMOiy-SIYOSIY VA MA’NAVIY
TARAQQIYOTDA NAMOYON BO‘LISH JARAYONLARI**

09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi (siyosat falsafasi)

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Philosophical Sciences**

Avlakulov Aktam Mavlonkulovich

Texnogen sivilizatsiyaning ijtimoiy-siyosiy va ma’naviy taraqqiyotda namoyon bo‘lish jarayonlari.....3

Авлакулов Актам Мавлонкулович

Процессы проявления техногенной цивилизации в общественно-политическом и духовном развитии.....29

Avlakulov Aktam Mavlonkulovich

Manifestation processes of technogenic civilization in socio-political and spiritual development.....56

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....61

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT KIMYO-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

AVLAKULOV AKTAM MAVLONKULOVICH

**TEXNOGEN SIVILIZATSIYANING IJTIMOIIY-SIYOSIY VA MA’NAVIY
TARAQQIYOTDA NAMOYON BO‘LISH JARAYONLARI**

**09.00.02 – Ong, madaniyat va amaliyot shakllari falsafasi
(siyosat falsafasi)**

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Toshkent - 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.1.PhD/Fal660 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (ik-falsafa@nuu.uz) va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Atamuratov Sadulla

falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Abdullayeva Nasiba Bo'ronovna

falsafa fanlari doktori, dotsent

Kushayev Umidjon Raximovich

falsafa fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

**«Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini
mexanizatsiyalash muhandislari instituti»
Milliy tadqiqot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc.30/30.12.2019.F.01.05 raqamli ilmiy kengashning 2023-yil 3-iyul, soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy, Madaniyat saroyining kichik zali. Tel.: (+99871)227-12-24; faks: (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (94-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. O'zMU Ma'muriy binosi, 2-qavat, 4-xona. Tel.: (+99871) 227-12-24; faks: (99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil 23-iyun kuni tarqatildi.

(2023 yil 23 iyundagi 12 raqamli reyestr bayonnomasi).

I.S. Saifnazarov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori, professor

G.M.Ruzmatova,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, falsafa fanlari doktori, professor

J.S.Ramatov,

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon mamlakatlarining zamonaviy qiyofasini ilm-fan, texnika, texnologiyalarning taraqqiyoti belgilab bermoqda. Jamiyatning yirik sanoat ishlab chiqarishi tufayli xalqlar va millatlar hayotida iqtisodiyotning yangi siyosiy boshqaruv madaniyati shakllanmoqda. BMT ning 75 yilligi munosabati bilan o'tkazilgan «Yashil shaharlar va iqtisod: akademik doiralar qarori»da texnogen sivilizatsiya sharoitida jahon hamjamiyatining global muammolari tahlil etildi. Ayniqsa, XXI asrning texnogen madaniyati global miqyosda ekologiya, urbanizatsiya, demografik muammolar, bashariyatning oziq-ovqat, energiya zahiralari bo'lgan ehtiyojining beqiyos ortishi bilan davlatlar orasida ayrim siyosiy nizo va qarama-qarshiliklarning keskin tus olishida o'z ifodasini topmoqda. Zamonaviy texnika taraqqiyoti jarayonining o'ziga xos ijobiy jihati bilan salbiy ta'sirlari texnogen sivilizatsiyaning tahdidi shaklida namoyon bo'lmoqda. Bu hol «texnogen sivilizatsiya»ning ijtimoiy-iqtisodiy fenomenal jihati bilan birga siyosiy-falsafiy xususiyatlarining ilmiy konseptual tadqiqi dolzarb ahamiyatini tasdiqlaydi.

Dunyoning bir qator yetakchi mamlakatlarida texnika va texnologiyalarning ijobiy va salbiy tomonlarini tahlil qiladigan, salbiy oqibatlaridan himoyalaniş uchun tavsiyalar ishlab chiqish bilan shug'ullanadigan ilmiy markazlar faoliyat olib boradi. Jumladan, AQSH da Morgan Stenli (Morgan Stanley) tadqiqot markazi, «Mustaqil Media markazi, Indimedia» («Independent Media Center, Indimedia»), «AQSH Milliy razvedka kengashi» («US National Research Council»), Rossiya Federatsiyasida «Axborot xavfsizligi markazi» («Центр информационной безопасности ФСБ России»), Yaponiyada esa «Fan va texnologiya siyosati instituti» («National Institute of Science and Technology Policy» (NISTEP)) kabi tadqiqot markazlari texnika taraqqiyotining turli ta'sirlarini o'rganish va uning salbiy oqibatlaridan himoyalaniş uchun tavsiyalar berish bilan shug'ullanadi. Bundan ko'rinib turibdiki, texnogen sivilizatsiyaning turli ta'sirlarini o'rganish, aniqlash va uning salbiy oqibatlariga qarshi kurashishni tashkil qilish dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida an'anaviy jamiyatdan industrial jamiyatga o'tish yo'li milliy urf-odat, an'ana, qadriyat va merosni qayta tiklash, ijtimoiy davlatning konstitutsion huquqiy asoslarini shakllantirish siyosatida markaziy masalaga aylandi. Chunki yurtimiz global texnogen sivilizatsiya ta'sirida milliy madaniyat, an'ana va qadriyatlarini saqlab qolish barkamol avlod tarbiyasini belgilab beradi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida «To'g'ri ovqatlanish va sog'lom turmush tarzi – yangi umummilliy harakatini mahalladan boshlaymiz» degan tashabbusi texnogen sivilizatsiya tahdididan saqlanishda milliy dasturilamal vazifasini o'taydi. O'zbekistonda texnogen sivilizatsiya doirasida dunyo mamlakatlari bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yish, jahon siyosiy va mafkuraviy maydonlarida ro'y berayotgan o'zgarishlardan himoyalaniş, taraqqiyotga erishish yo'lida intellektual, innovatsion salohiyatdan foydalanish, fuqarolarda novatorlik qobiliyatini

shakllantirish, zamonaviy texnika vositalarini ishlab chiqishni yo'lga qo'yishga e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi PF-4947-son, 2018-yil 21-sentabrdagi «2019–2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi PF-5544-son, 2020-yil 5-oktabrdagi «Raqamli O'zbekiston — 2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6079-son, 2022-yil 28-yanvardagi «2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmonlari va hamda innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish bilan bog'liq o'zga me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish» doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov va Prezident Sh.M.Mirziyoyev asar, nutq va ma'ruzalari¹da jamiyatning ilmiy-texnik taraqqiyoti, har bir fuqaroga munosib turmush tarzini ta'minlashga oid konseptual g'oyalar mazkur tadqiqotga ilmiy-metodologik asos bo'lib xizmat qildi.

Texnogen sivilizatsiyaning tushuncha sifatidagi mazmun mohiyatini o'rganish hamda jarayon sifatida o'ziga xos tomonlarini tahlil qilish XX asr o'rtalaridan boshlab ijtimoiy fanlarda muhim mavzu bo'lib kelmoqda. Mazkur tadqiqotlarda texnogen sivilizatsiyaning nazariyasida global madaniyat, kapitalistik ijtimoiy munosabatlarning ziddiyati, «post-odam»ning mohiyati va inson tabiatidagi mutatsiya kabi davrning ilmiy texnika inqilobining ta'siri, bashariyatning taqdiriga tahdidlar kabi ustuvor yo'nalishlarda falsafiy tadqiqotlar amalga oshirilgan². Ayni vaqtda kishilik jamiyatining texnogen sivilizatsiyasi

¹ Karimov I.A. Asarlar to'plami. 1-23 j. – Toshkent: O'zbekiston, 1996 – 2015; Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik Ўzbekiston davlatini birlashtirishda barpo etamiz. – Toshkent: Ўzbekiston, – 2016; Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiёti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: Ўzbekiston, – 2017; Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va шахсий javobgarlik – har bir rahbar faolligining kundalik kundasi b'ulishi kerak. – Toshkent: Ўzbekiston, – 2017; Mirziyoyev Sh.M. Bуюk kelajagimizni mard va olijanob хalqimiz bilan birga kuramiz. – Toshkent: Ўzbekiston, – 2017.

² Beck U. Was ist Globalisierung? Frankfurt am Main, 2002. – P. 44; Drucker P.F. Post-Capitalist Society. N.Y.: Harper-Collins Publ., 1995.-232 p; Robertson R. Globalization Theory and Civilization Analysis//Comparative Civilizations Review. 2007. Vol. 17. – P. 46-56; Quentin J.P. Mutation //New technocratic wave in the West. -M.: Progress, 2000. -456 p; Медуз Д. Пределы роста. Сложные положения человечества. –М.: Изд. Московского университета, 2001. –207 с; Toffler A. 'Future Shock' Adviser to Leaders, Dies at 87 // Bloomberg News – Нью-Йорк: 2016. – 560 p; Фукуяма Ф. Наше постчеловеческое будущее: Последствия биотехнологической революции // Пер. с англ. М.Б. Левина. – М.: ОАО ЛЮКС, 2004. – 349 с. и др.

oqimi, madaniyatning yangi yakuniy shakli «tarixning tugashi»ga olib keluvchi ziddiyatli omil sifatida pessimistik qarashlarni ham kuzatish mumkin³.

MDH davlatlarining ijtimoiy fanlarida texnogen sivilizatsiyaning ijtimoiy falsafiy tahlil va talqinlari, alohida hollarda konsepsiyasi ham ishlab chiqilgan⁴. Adabiyotlarda ilmiy jihatdan postindustrial jamiyatda ilmiy-texnika, texnologiya, texnogen madaniyat insonning maqomi va munosabati bilan birga texnogen jamiyatga transformatsiya orqali texnikaning insonparvarlashuviga zid insonning ma'naviy texnik devalvatsiyasi, sivilizatsiya va madaniyat kontekstida texnogen odamning vujudga kelishi ilmiy tahlil etilgan. Natijada ilmiy adabiyotlarda texnogen jamiyatda global ijtimoiy madaniyat sohasida ijtimoiy taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlarini aniqlash asosida «texnogen odam», «post-odam»ning hayotini ta'minlashga oid davlatlarning siyosiy yo'l va tamoyillarini aniqlash g'oyalari olg'a surilmoqda. Hozirgi paytda MDH ilmiy hamjamiyatida S.Qora Murzaning sivilizatsiya paradigmalari bahsli bo'lsa-da, lekin V.S.Stepinning texnogen sivilizatsiyasiga oid konsepsiyasi ijobiy e'tirof etilmoqda⁵.

O'zbekistonda texnogen sivilizatsiyaga oid maxsus ilmiy tadqiqot kam ishlangan, lekin o'lkamizning yirik sanoat korxonalarining zamonaviy texnika va texnologiyalar asosida industrialashuvi, urbanizatsiya, ekologiyaga oid texnogen madaniyat muammolari ekolog, iqtisodchi, sotsiologlar tomonidan tadqiq etilgan⁶.

Mintaqa davlatlarining an'anaviy jamiyatdan texnogen madaniyatga tomon modernizatsiya jarayonlariga oid tadqiqotlarida texnogen sivilizatsiyaning

³ Фукуяма Ф. Триумф глобализма. Конец истории или начало? – М.: Родина. 2019. 462 с; Клаус Шваб. Тўртинчи sanoat inqilobi. – Тошкент: NIHOL, 2022. – 248 б; Тоффлер, Э. The Third Wave, 1980. –М.: АСТ, 2010. – 784 с; Хантингтон С. Столкновение цивилизаций /пер. с англ. Т. Велимеева. –М.: Изд. АСТ, 2015. – С. 571; Шпенглер О. Закат Европы. – Ростов н/Д; изд. Феникс, 1998. – 640 с. и др.

⁴ Алешина И. Постиндустриальное общество и международные коммуникации //Международное сотрудничество. – 2000. –№1. С. 22; Гассиева М. А. Техногенное общество: о вопросе взаимоотношении// Символ науки. – 2011. – №3. –С. 135–137; Демиденко Э. С. Дергачева Е. А. Техногенное развитие общества и трансформация биосферы. — М., 2010. – С. 211; Дробовцева, С.В. Формы и методы передачи знаний в духовных традициях // Вестник Нижегородского Университета. 2007. –№ 3 (8). – С. 179–185; Дыдров А.А., Починская В.А., Шарипова А.Р. Механизация человека и гуманизация машины: тенденции существования человека и техники // Социум и власть. –2018. –№ 3 (71). – С. 7–14; Корытина М.А. Культурная глобализация: феномен, сущность, противоречия процесса // Известия Саратовского университета. Серия Философия. Психология. Педагогика. – Саратов: –2016. – Т.16. – №4. – С. 381–387; Крылов Д.А. Техногенная цивилизация и культура: основные тенденции развития в современном контексте // Современные проблемы науки и образования. – 2014. – № 6.; Храпов С.А. Техногенный человек: проблемы социокультурной онтологизации // Вопросы философии. – 2014. – № 9. – С. 66–75; Храпов С.А. Человек в техногенном обществе: философско-исторический анализ // Вестник Калмыцкого Университета. – 2017. – № 33 (1); Ясинский Д.Ю. Идентификация качества рабочей силы в информационной экономике // Фундаментальные исследования. – 2017. – № 10 (1). – С. 161-167; Уткин А. И. Россия и Запад: История цивилизаций. – М.: Гардарики, 2000. – 576 с.; Пригожин И.Р. Наука, цивилизация и демократия. Мир человека: неопределенность как вызов. – М.: Ленанд, 2019. – С. 520; Новиков В.Т., Новикова О.В. Техногенная цивилизация: концептуальные основания и тенденции динамики // Журнал БГУ. – 2018. – № 3. – С. 58–63.; Хайбуллина И.В. Техногенная цивилизация, общество, человек // Актуальные проблемы социальной философии и обществознания: Вестник ОГУ. – 2008. – № 89. – С.141–147.; Федорова О.Ю. Проблемы и перспективы техногенной цивилизации. Современные техника и технологии // Сборник трудов научной конференции ученых. В 2 т. Т. 2. – Томск.: ТПУ. 2015. – С. 319–322; Дождикова Р.Н. Актуальные проблемы современной техногенной цивилизации // Веснік БГУ. Сер. 3. – Минск. 2007. – № 1. – С. 61–65.

⁵ Кара-Мурза С. Политэкономия индустриализма. – М.: Родина. 2018. – С.272; Кара-Мурза С. Россия и Запад: парадигмы цивилизации. –М.; Академический проект. 2013. – С. 232; Стёпин В.С. Эпоха цивилизационных перемен и диалог культур // Альманах «Форум -2009»; Цивилизационные и национальные проблемы. – М.: – С. 17–35; Степин В.С. Цивилизация и культура. – Спб.: СпБГУП. 2011. – 408 с. и др.

⁶ Фойдаланилган манбалар умумий адабиётлар рўйхатида илова қилинган.

mamlakat, millat va xalqlar taqdiri, shaxs ma'naviy va axloqiy qiyofasiga ta'siri, uning o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlariga oid ishlarni to'rt guruhga bo'lib o'rganish mumkin: birinchi guruhga mamlakatimizda bevosita texnogen sivilizatsiyaning kelib chiqishi, rivojlanishi, mazmun-mohiyati, uning atrof-muhitga va inson ongi transformatsiyalashuviga ta'sirini o'rgangan N.R.Ochilova, J.A.Ochilov, D.A.Muratova hamda A.I.Tulyayevlarning ilmiy izlanishlarini kiritish mumkin. Jumladan, bizning tadqiqot mavzuimizga yaqin N.R.Ochilova tomonidan nomzodlik⁷, J.A.Ochilov, D.A.Muratova va A.I.Tulyayevlar tomonidan falsafa doktori⁸ dissertatsiyalari himoya qilingan. Ushbu mualliflar o'z ilmiy tadqiqot ishlarida texnogen sivilizatsiyani ilmiy-falsafiy nuqtayi nazardan ochib berdilar. Texnogen sivilizatsiyaning inson ongi va dunyoqarashiga turli ta'sirlarini asoslab berdilar.

Ikkinchi guruhga texnogen sivilizatsiyaning mamlakat, millatlar va xalqlar taqdiriga, shaxs ma'naviy va axloqiy qiyofasiga ta'siri, uning o'ziga xos ijobiy va salbiy tomonlarini tadqiq qilgan ishlarni kiritishimiz mumkin. S.Otamuratov, B.O.Turayev, N.Jo'rayev, Sh.B.Qahhorova⁹ kabi olimlar ilmiy tadqiqotlarida texnogen sivilizatsiyaning o'z mavzulariga daxldorlik nuqtayi nazaridan tahlil qilib, globallasuv milliy-diniy madaniy identifikatsiya, sinergetika kontekstida amalga oshirilgan. Shu boisdan, mazkur ilmiy tadqiqotlarda olimlar tomonidan texnogen sivilizatsiya muammosi nazariy jihatdan konseptual tadqiqot predmeti sifatida qo'yilmagan.

Uchinchi guruhga MDH mamlakatlaridagi olimlar tadqiqotlarini kiritish mumkin. Ularning asarlarida hozirgi zamon texnogen sivilizatsiyasi muammolarini hal etishda shaxs «texnologik madaniyatini» yuksaltirishga doir amaliy (hatto, radikal) tadbirlarni amalga oshirish zarurligi ko'rsatilgan. V.S.Stepin, L.F.Kuznetsova, P.Sorokin, A.I.Utkin, I.R.Prigojin, V.T.Novikov, O.V.Novikova, I.V.Xaybullina, S.A.Xrapov, Ye.A.Dergacheva, O.Y.Fyodorova, R.N.Dojdikova¹⁰lar mavzuimizga doir masalalarni nazariy jihatdan o'rganishgan.

⁷ Очилова Н.Р. Ҳозирги замон цивилизациясининг шахс маънавий кифасига таъсири: фалс. фан. ном. дис. – Тошкент: ЎзМУ. 2010. – 137 б.

⁸ Очиллов Ж.А. Глобал техноген цивилизация ривожланиш жараёнининг синергетик таҳлили: фалс. фан. ном. дис. – Самарқанд, – 2018. – 136 б.; Муратова Д.А. Техноген цивилизация даврида инсон онги трансформациялашувининг фалсафий таҳлили: фалс. фан. ном. дис. – Тошкент, – 2020. – 151 б.; Туляев А.И. Виртуал оламнинг ахлоқий муаммолари (фалсафий таҳлил): фалс. фан. ном. дис. – Тошкент, – 2021. – 148 б.

⁹ Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. Тошкент: «Ўзбекистон», 2013. – 456 б.; Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. Тошкент: «Ўзбекистон», 2-нашр, 2015. – 456 б.; Отамуратов С. Глобаллашув: миллиятни асраш масъулияти (сиёсий-фалсафий қирралари) - Тошкент: Ўзбекистон НМИУ, 2018. – 134 б.; Тўраев Б.О. Синергетика: моҳияти, қонуниятлари ва амалиётда намоён бўлиши. – Тошкент: Наврўз, 2017. – 460 б.; Жўраев Н. Тарих фалсафасининг назарий асослари. – Тошкент: Маънавият, 2008. – 422 б.; Қахҳорова Ш. Глобал маънавият – глобаллашувнинг ғоявий асоси. – Тошкент: Тафаккур, 2009. – 448 б.

¹⁰ Степин В.С. Научное познание и ценности техногенной цивилизации // Вопросы философии. – Москва. 1989. – № 10. – С. 3–18.; Кузнецова Л.Ф., Степин В.С. Научная картинка мира в культуре техногенной цивилизации. – М.: ИФ РАН, 1994. – С. 274; Сорокин П. Человек. Цивилизация. Общество. – Москва: Политиздат, 1992. – 543 с.; Уткин А. И. Россия и Запад: История цивилизаций. – М.: Гардарики, 2000. С. 576; Пригожин И.Р. Наука, цивилизация и демократия. Мир человека: неопределенность как вызов. – М.: ЛЕНАНД, 2019. – С. 520; Пригожин И., Стенгерс И. Порядок из хаоса: Новый диалог человека с природой. — М.: Прогресс, 1986. – С. 432; Новиков В.Т., Новикова О.В. Техногенная цивилизация: концептуальные основания и тенденции динамики // Журнал Белорусского государственного университета. – Белорусия, 2018. – № 3. – С. 58-63.; Хайбуллина И.В. Техногенная цивилизация, общество, человек // Актуальные

Ayniqsa, L.F.Kuznetsova, V.S.Stepinlarning tadqiqotlari katta ahamiyatga ega. Ular texnogen sivilizatsiyaning turli ta'sirlarini aniqlab, tahlil qiladilar. Jumladan, texnogen sivilizatsiya faqat ijobiy ahamiyat kasb etadigan jarayon emas, u insonlar va mamlakatlar hayotiga ham ijobiy, ham salbiy natijalarni keltirib chiqaradigan jarayon ekanligi tadqiq qilingan¹¹. Ushbu fikr tadqiqotimizda ilgari surilgan g'oyalar bilan hamohang ekanligi ahamiyatga ega.

To'rtinchi guruhga AQSH va Yevropa mamlakatlari olimlarning ishlarini kiritish mumkin. Ular tomonidan texnogen sivilizatsiya jarayonlariga oid muhim tadqiqotlar amalga oshirilgan. F.Fukuyama, F.Brodel, O.Shpengler, A.Shveyser, A.Pechchei, S.Xantington, G.Xaken, K.Shvab¹² va boshqalarning asarlarida texnogen sivilizatsiya natijasida shakllangan qadriyatlar majmuasi jamiyat ma'naviy taraqqiyoti asosi, inson ma'naviy borlig'ini belgilovchi obyektiv omil ekanligi tahlil etilgan.

Umuman o'rganilgan manbalarning ko'pligiga qaramasdan, ularning aksariyatida tadqiq qilingan muammolar o'tgan davr nuqtayi nazaridan yoki boshqa mintaqalarga tegishli bo'lib, faqat o'zlarining ilmiy yo'nalishlari doirasida hamda bir tomonlama o'rganilgan. Texnogen sivilizatsiyaning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyotda namoyon bo'lishi, texnogen ongni shakllantiruvchi omillar, texnogen sivilizatsiya va milliy-ma'naviy taraqqiyot o'rtasidagi ziddiyatlar, texnogen sivilizatsiyani yuzaga kelishida moddiy-ma'naviy ehtiyojlarning o'rnini va uning bugungi kunda shiddat bilan rivojlanib borish jarayoni yetarlicha ochib berilmagan. Bu esa texnogen sivilizatsiyaning o'ziga xos tomonlarini o'rganish va muayyan tizimga solish ehtiyojini yuzaga keltiradi. Ushbu masalada respublikamizda fundamental tadqiqotlar yetarli emas, atigi bitta nomzodlik dissertatsiyasi himoya qilingan, sanoqli maqolalar e'lon qilingan. Shu ma'noda uning siyosiy-falsafiy mazmuni va mohiyatini tushunib olish, respublikamizda texnika va texnologiya imkoniyatlaridan yetarlicha foydalanish hamda uning milliy ma'naviyat bilan hamohang rivojlanish yo'lida fundamental izlanishlar olib borish milliy taraqqiyotimiz uchun muhim ahamiyatga egadir.

проблемы социальной философии и обществознания: Вестник Оренбургского государственного университета. – 2008. – №9. – С.141–147.; Храпов С.А. Техногенный человек: проблемы социокультурной онтологизации // Вопросы философии. – Москва, 2014. – №9.; Храпов С.А. Человек в техногенном обществе: философско-исторический анализ // Вестник Калмыцкого Университета. – Калмыкия. 2017. – № 33 (1.); Дергачева Е.А.Техногенное общество противоречивая природа его рациональной трансформации: Дисс. ...канд. фил. наук. – Брянск: БГУ. 2005.; Федорова О.Ю. Проблемы и перспективы техногенной цивилизации. Современные техника и технологии // Сборник трудов XXI Международной научной конференции студентов, аспирантов и молодых ученых. В 2 т. Т. 2. – Томский политехнический университет. – Томск., Изд-во Томского политехнического университета, 2015. – 319-322 с.с.; Дождикова Р.Н. Актуальные проблемы современной техногенной цивилизации // Веснік БГУ. Сер. 3. – Минск. 2007. – № 1. – С. 61–65.

¹¹ Кузнецова Л.Ф., Степин В.С. Научная картинка мира в культуре техногенной цивилизации. – М.: ИФ РАН, 1994. – 274 с.

¹² Фукуяма Ф. Триумф глобализма. Конец истории или начало? – Москва, Издательство Родина. 2019.; Шпенглер О. Закат Европы. Очерки морфологии мировой истории. Том 1. Образ и действительность. – М.: Попурри, 2019.; Schweitzer A. The Problem of Peace in the World of Today. – University of Michigan, A. & C. Black, Inc., 1954. – 19 p.; Печчеи А. Человеческие качества. – Москва: Прогресс, – 1985. – С. 312; С.Хантингтон. Столкновение цивилизаций. Пер. С англ. Т. Велимеева, Ю.Новикова. – М.: ООО «Издательство АСТ» 2003. – С. 603; Хакен Герман. Сенергетика. М.: Мир, 1980. – С. 405; Клаус Шwab. Тўртинчи sanoat инкилоби. – Тошкент: NIHOL, 2022. – 248 б.

Yuqorida keltirilgan manbalarning barchasi ilmiy tadqiqot ishimiz uchun nazariy asos bo'lib, dissertatsiyada texnogen sivilizatsiyaning milliy madaniy taraqqiyotga ta'sirini ilmiy tahlili uchun muammoning siyosiy-falsafiy jihatdan milliy konseptual mazmuniga oid tadqiqot nuqtayi nazardan ilmiy mavzu muammosi belgilandi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Toshkent kimyo-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish va ilmiy salohiyatni oshirishga yo'naltirilgan kompleks chora-tadbirlar dasturi» loyihasi doirasida bajarildi.

Tadqiqotning maqsadi mamlakatimizda ijtimoiy davlat taraqqiyotida an'anaviy jamiyatdan texnogen sivilizatsiya transformatsiyasi jarayonida texnogen sivilizatsiyaning murakkab jarayonlarini siyosiy-falsafiy jihatdan yoritib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

«texnogen sivilizatsiya», «texnogen ong» tushunchalarining siyosiy-falsafiy jihatdan tizimli tahlillarini amalga oshirish;

texnogen sivilizatsiya jarayonida texnogen ongning shakllanishi, uning zarurligi va ahamiyatini o'rganish;

respublikamizning texnogen madaniy taraqqiyotida texnomadaniyatning milliy ongdagi transformatsiyasi kontekstida milliy manfaat va ehtiyojlarning muvozanatini aniqlash;

zamonaviy texnosivilizatsiyada mamlakatimizning milliy-ma'naviy taraqqiyotini istiqbolli yo'nalishlarini aniqlash asosida milliy madaniy taraqqiyot strategiyasini tadqiq etish;

texnogen ongning milliy ong bilan bog'liqligini aniqlash;

Tadqiqotning obyektini – texnogen sivilizatsiyaning kelib chiqishi va rivojlanishiga ta'sir o'tkazuvchi omillarni aniqlash tashkil etadi.

Tadqiqotning predmetini – texnogen sivilizatsiyaning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy taraqqiyotda namoyon bo'lishi va uning oqibatlari tashkil qiladi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada induksiya, deduksiya, tizimli va qiyosiy tahlil, sotsiologik so'rov usullari hamda tarixiylik, mantiqiylik tamoyillaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

texnogen ongning in'ikosi sifatida yuzaga kelgan va dinamik rivojlanish xususiyatiga ega bo'lgan texnogen sivilizatsiyaning inson ma'naviy hayoti, jamiyat barqarorligi hamda davlat boshqaruviga o'tkazayotgan ijobiy va salbiy ta'sirlarida ijtimoiy makonda texnooptimizm hamda texnopessimizm shakllanishi asoslangan;

odamlar ehtiyojini qanoatlantirish, milliy intellektual salohiyatni yuksaltirish, insonlarning yaratuvchanlik qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish globallashuv tendensiyalari sharoitida an'anaviy va zamonaviy jamiyat hamda texnogen sivilizatsiyani shakllantiruvchi omillar ekanligi falsafiy empirizm jihatidan dalillangan;

texnogen sivilizatsiya va milliy-ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashning ijtimoiy zaruriyat sifatida dialektik aloqadorlikda kechishi aniqlanib, ular o'rtasidagi qarama-

qarshilikning mintaqaviy shart-sharoit, texnika taraqqiyoti, innovatsiya va novatsiya bilan bog'liq obyektiv hamda shaxsiy identifikatsiya, manfaatlar to'qnashuvi, siyosiy tizimga oid subyektiv omillari falsafiy determinizm nuqtayi nazaridan ochib berilgan;

mamlakatimizda texnogen sivilizatsiya yutuqlaridan jamiyat taraqqiyoti yo'lida samarali foydalanish imkoniyatlari aniqlanib, uning mamlakat iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyoti hamda istiqboliga qaratilgan ekologik, iqtisodiy, texnologik muammolarni hal qilishdagi strategik ahamiyati siyosiy-falsafiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

texnogen sivilizatsiyaning mazmuni, o'ziga xos jihatlari, uning milliy-ma'naviy taraqqiyotga ta'siriga doir masalalar ilmiy-nazariy xulosalar asosida tahlil qilinib umumlashtirilgan hamda konkretlashtirilgan;

texnogen sivilizatsiya jarayonining shakllanishiga ta'sir qiluvchi ehtiyojlar, inson aql-zakovati, yaratuvchanlik qobiliyati kabi omillar aniqlanib, metodologik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

mamlakatimizda texnogen sivilizatsiyani shakllantirish imkoniyatlari aniqlangan, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy konferensiyalarda muhokama qilinganligi, xulosa, taklif va tavsiyalar amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati dissertatsiyada ilgari surilgan g'oyalardan falsafa, dinshunoslik, siyosatshunoslik, ma'naviyat sohasi bo'yicha o'tkaziladigan tadqiqotlar hamda metodologik yondashuvlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, undan davlat tashkilotlari, ijtimoiy-siyosiy institutlar, nodavlat tashkilotlar, ommaviy axborot vositalari, milliy-madaniy markazlar, ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasidagi o'quv qo'llanmalar va o'quv-uslubiy adabiyotlar tayyorlashda, yoshlarda yaratuvchanlik qobiliyatini shakllantirish bo'yicha faoliyat olib boradigan markazlar o'z faoliyatida foydalanishlari mumkin. Shuningdek, taklif va xulosalar amaldagi davlat xizmatchilari, xususan, huquq-tartibot organlari, ma'naviy-ma'rifiy sohani nazorat qilish tizimida faoliyat yurituvchi mutaxassislar, ayniqsa, o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyati uchun foydali bo'lishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Texnogen sivilizatsiyaning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyotda namoyon bo'lish jarayonlariga oid ishlab chiqilgan ilmiy natijalar asosida:

texnogen ongning in'ikosi sifatida yuzaga kelgan va dinamik rivojlanish xususiyatiga ega bo'lgan texnogen sivilizatsiyaning inson ma'naviy hayoti, jamiyat barqarorligi hamda davlat boshqaruviga o'tkazayotgan ijobiy va salbiy ta'sirlarida ijtimoiy makonda texnooptimizm hamda texnopessimizm shakllanishi asoslanganligi bilan bog'liq ilmiy yangilikdan O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasining «Yosh adolatchilar» qanoti va «Ayollar qanoti» a'zolari orasida

texnogen sivilizatsiya davrida texnika va texnologiyalardan foydalanish qoidalari to'g'risidagi amaliy takliflardan foydalanilgan. Jumladan, partiyaning «Yosh adolatchilar» qanoti Nizomining 2.1-bandida yoshlarga jamiyatning muhim, qimmatli milliy resursi sifatida qarab, ularning mustaqil fikr va keng dunyoqarashga egaligi, shuningdek, intiluvchanligi va zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish qoidalari belgilangan bo'lib, natijada yoshlar ishtirokida «Yoshlarni virtual olam tahdidlaridan himoya qilish zarurati» hamda «Virtual olamning ko'rinmas tahdidi» mavzularidagi tadbirda foydalanilgan (O'zbekiston «Adolat» sotsial-demokratik partiyasi Siyosiy Kengashining 2023-yil 15-martdagi № 01-04/65-son ma'lumotnomasi). Natijalar partiyaning texnogen sivilizatsiya sharoitida yoshlarni virtual olam tahdidlaridan himoyalash borasidagi targ'ibot ishlariga xizmat qilgan;

odamlar ehtiyojini qanoatlantirish, milliy intellektual salohiyatni yuksaltirish, insonlarning yaratuvchanlik qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish globallashuv tendensiyalari sharoitida an'anaviy va zamonaviy jamiyat hamda texnogen sivilizatsiyani shakllantiruvchi omillar ekanligi falsafiy empirizm jihatidan dalillanganligiga oid ilmiy yangilikdan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining III yo'nalishida belgilangan «G'oya va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma'rifat targ'iboti» 13-bandi «Yangi ma'naviy makonni shakllantirishning dolzarb masalalari, bu borada ma'rifatparvar, ziyolilar, davlat va jamoat faollarini birlashtirish hamda «Yangi O'zbekiston orzusi»ni ro'yobga chiqarish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etish» mavzusidagi targ'ibot ishlarini o'tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi Ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 11-martdagi 90-son ma'lumotnomasi). Ilmiy natijalar mamlakatimizda texnogen sivilizatsiyaning imkoniyatlaridan samarali foydalanish va uning ijobiy natijalarini milliy-ma'naviy taraqqiyotga yo'naltirish, salbiy oqibatlaridan yoshlarni himoyalashning siyosiy-falsafiy jihatlarini tahlil qilish, texnogen ongni rivojlantirishning milliy g'oya bilan yonma-yon kechishini ta'minlash, yangi O'zbekiston yoshlariga uning ahamiyatini tushuntirishga xizmat qilgan;

texnogen sivilizatsiya va milliy-ma'naviy taraqqiyotni ta'minlashning ijtimoiy zaruriyat sifatida dialektik aloqadorlikda kechishi aniqlanib, ular o'rtasidagi qarama-qarshilikning mintaqaviy shart-sharoit, texnika taraqqiyoti, innovatsiya va novatsiya bilan bog'liq obyektiv hamda shaxsiy identifikatsiya, manfaatlar to'qnashuvi, siyosiy tizimga oid subyektiv omillari falsafiy determinizm nuqtayi nazaridan ochib berilganligi borasidagi ilmiy yangilikdan O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasi faoliyatida foydalanilgan (O'zbekiston «Milliy tiklanish» demokratik partiyasining 2023-yil 15-martdagi 02/02-13-son ma'lumotnomasi). Natijalar partiya tizimidagi hodimlarning ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi bilim va ko'nikmalarini oshirishga xizmat qilgan;

mamlakatimizda texnogen sivilizatsiya yutuqlaridan jamiyat taraqqiyoti yo'lida samarali foydalanish imkoniyatlari aniqlanib, uning mamlakat iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyoti hamda istiqboliga qaratilgan ekologik, iqtisodiy, texnologik muammolarni hal qilishdagi strategik ahamiyati siyosiy-

falsafiy jihatdan asoslanganligiga doir ilmiy yangilikdan O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatida tatbiq etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining 2023-yil 16-martdagi 4-13-21-688-son ma’lumotnomasi). Natijada, amalga oshirilayotgan islohotlar va mamlakatimiz yoshlarining ma’naviy-axloqiy dunyoqarashini o‘shishiga qaratilgan targ‘ibot ishlariga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro, 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 33 ta ilmiy ish chop etilgan, shundan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola (jumladan, 2 tasi xorijiy, 5 tasi respublika jurnallarida) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 134 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o'rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi, obyekti, predmeti, metodlari, maqsadi va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilinganligi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Texnogen sivilizatsiya**» tushunchasining nazariy-metodologik asoslari deb nomlangan birinchi bobida «sivilizatsiya», «texnogen sivilizatsiya», «texnogen ong» tushunchalarining mazmun va mohiyati ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan, uning negizlari, maqsadi, texnogen sivilizatsiyaning yuzaga kelishiga sabab bo'lgan omillar hamda uning tarixiy ildizlari, texnogen ongning shakllanish jarayoni tadqiq etilgan.

Bugun insonlar yuqori darajadagi texnika va texnologiyalar, bir-biridan jozibador kashfiyotlar qilinib, kundan kunga takomillashib, yangilanib borayotgan davr – texnogen sivilizatsiya asrida yashamoqda. Olimlar oldida «texnogen sivilizatsiya» tushunchasining mazmun-mohiyatini aniqlash, uning paydo bo'lishi, omillari va rivojlanish tendensiyalari to'g'risida aniq tasavvurlarga ega bo'lishdek o'ta muhim vazifa yuzaga keldi.

Kishilar ongi, tafakkuri texnika va texnologiyalar ta'sirida o'zgarib, texnogen ongning shakllanish jarayoni ham sodir bo'lmoqda. Ayniqsa, bugungi globallashuv jarayonida texnogen ong shakllanishining yanada tezlashishi texnika va texnologiya turlarining takomillashuviga ham sabab bo'lmoqda. Bu esa inson ongi va tafakkuri texnika-texnologiya imkoniyatlarining tezligidan orqada qolish kabi holatlarni ham keltirib chiqarmoqda. Shu ma'noda, kishilarining texnika va texnologiyalarga munosabatlari turlicha bo'lishi, dunyo miqyosidagi turli siyosiy kuchlar va guruhlarning texnika va texnologiya imkoniyalaridan o'zlarining maqsadlari (o'z g'oyalarining masofadan turib targ'ib qilishda) yo'lida vosita sifatida foydalanish kabi jarayonlarni yuzaga keltirdi va globallashuv jarayonida bunday intilishlar soat sayin kuchayib bormoqda.

Turli ensiklopediya, lug'atlar hamda olimlarning qarashlaridagi ta'riflardan kelib chiqib, sivilizatsiya: a) «fuqarolikka», «davlatga taalluqli», «fuqaroviy», «ijtimoiy» ma'nolarini anglatuvchi lotincha «civilis» so'zidan olinganligi; b) insoniyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichi (ibtidoiy davrdan keyingi ijtimoiy taraqqiyot bosqichi) ma'nosida qo'llanilishi; d) jamiyatning o'z taraqqiyoti jarayonida yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarining, ularni yanada kuchaytirib hamda takomillashtirib borish usullarining majmui; e) madaniyatning sinonimi; f) aql-idrok va adolatga asoslangan jamiyat; g) tarixning ma'lum bir bosqichida sodir bo'ladigan inqilobiy o'zgarishlar ifodasi ekanligi ma'lum bo'lmoqda.

Sivilizatsiya tushunchasining mazmunini o'rganish jarayonida olimlar insoniyat tarixiy taraqqiyotida ko'plab sivilizatsiyalar yuzaga kelganligini ta'kidlashadi. Masalan, «sivilizatsiya» tushunchasini ingliz olimi A.Toynbi «o'ziga

xos va nisbatan yopiq bo‘lgan jamiyatni ifodalash uchun»¹³ ishlatgan hamda insoniyat tarixida jami 21 ta sivilizatsiya bo‘lganligini aniqlaydi, hattoki ulardan 6 tasi bugun ham mavjudligini ta’kidlaydi¹⁴, nemis faylasufi O.Shpengler esa «madaniyatning antipodi ma’nosida, ya’ni madaniyatning halok bo‘lish jarayoni bosqichini xarakterlash uchun»¹⁵ qo‘llab, 10 ga yaqin¹⁶ sivilizatsiyalar yuzaga kelganligini ta’kidlaydi. Olimlar ularning barchasini sivilizatsiyalar taraqqiyoti turlariga ko‘ra ikkita guruhga ajratishadi. 1) an’anaviy sivilizatsiyalar; 2) texnogen sivilizatsiyalar¹⁷.

«Texnogen sivilizatsiya – ijtimoiy taraqqiyotning o‘ziga xos tipini anglatadi. U XV–XVII asrlarda G‘arb madaniyati ichida Yevropada vujudga kelgan»¹⁸. Texnogen sivilizatsiya taraqqiyoti jamiyatda, tabiiy va sun’iy texnosferada, fan va unga asoslangan insoniyatning texnik va texnologik faoliyati ta’sirida yuz beradigan tub o‘zgarishlarni o‘zida ifoda etadi.

«Texnogen sivilizatsiya» tushunchasiga turli yondashuvlar		
I guruh	II guruh	III guruh
G‘arb olimlari	MDH mamlakatlari olimlari	Mamlakatimiz olimlari
K.Yaspers, S.Hantington, P.J.Byukenen, S.Xoking, K.Shvab	V.S.Stepin, L.Z.Kuznetsova, S.I.Nekrasov, N.A.Nekrasova, V.A.Kutiryov	S.Otamuratov, A.Qodirov, J.Ochilov, D.Muratova, N.Ochilova
K.Yaspers - insoniyat tarixiy taraqqiyotini bosqichlarga bo‘lish orqali texnogen sivilizatsiyaning yuzaga kelish jarayonini ifodalab beradi. S.Xantington – texnogen	V.S.Stepin, L.Z.Kuznetsova – «texnogen sivilizatsiya Yevropada dastlabki kapitalizmning shakllanishi paytida	S.Otamuratov texnogen sivilizatsiyaning salbiy tomonlaridan himoyalaniş kerakligini ta’kidlaydi.

¹³ Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. 2-нашр. – Тошкент: «Ўзбекистон», 2015. – 43 б.

¹⁴ Тойнби А.Дж. Достижение истории: / пер. с англ. Е. Д. Жаркова. - Москва: АЙРИС-ПРЕСС, 2010. – 97 с.

¹⁵ Отамуратов С. Глобаллашув ва миллий-маънавий хавфсизлик. 2-нашр. – Тошкент: Ўзбекистон, 2015. – 42 б.

¹⁶ Янов А. Сколько на Земле цивилизаций? // Россия в глобальной политике. – Москва. 2006. №5. – <https://globalaffairs.ru/articles/skolko-na-zemle-civilizacziy/> [15.02.2023]

¹⁷ Крылов Д.А. Техногенная цивилизация и культура: основные тенденции развития в современном контексте // Современные проблемы науки и образования. – Москва. 2014. – № 6. – С. 4.

¹⁸ Qarang: Гизо Ф. История цивилизации в Европе. – Москва: Территория будущего, 2007.; Морган Л. Первобытное общество: Исследования прогресса человечества из дикого состояния к варварству и из варварства к цивилизации. – Санкт-Петербург: Пантелеев Л.Ф., 1900.; Энгельс Ф. Происхождение семьи, частной собственности и государства: в связи с исследованиями Льюиса Г. Моргана. – Москва: URSS, 2007.; Ясперс К. Смысл и назначение истории. – Москва: Республика, 1994.; Данилевский Н. Россия и Европа: взгляд на культурные и политические отношения славянского мира к германо-романскому. – Москва: Эксмо, 2003.; Тойнби А. Цивилизация перед судом истории. – Москва: АЙРИС ПРЕСС, 2006.; Шпенглер О. Закат Европы. Гештальт и действительность. Очерки морфологии мировой истории. – Москва: Эксмо, 2006.; Вебер М. Аграрная история Древнего мира. – Москва: Канон-пресс, 2001.; Белл Д. Грядущее постиндустриальное общество: опыт социального прогнозирования. – Москва: Academia, 2004.; Росту У. Политика и стадии роста. – Москва: Прогресс, 1973.; Тоффлер Э. Шок будущего. – Москва: АСТ, 2003.; Тоффлер Э. Третья волна. – Москва: Эксмо, 1999.

<p>sivilizatsiya «... qo‘l mehnatiga asoslangan kasanachilikdan klassik og‘ir sanoatga, keyin bilimga asoslangan texnologiyalar va ishlab chiqarishgacha taraqqiy etishi mumkin bo‘lgan sanoatga asoslangan»¹⁹.</p>	<p>paydo bo‘lgan va ko‘pincha kelib chiqish mintaqasiga ko‘ra G‘arb sivilizatsiyasi deb ataladigan sivilizatsiya rivojlanishining o‘ziga xos turini bildiradi»²⁰.</p>	<p>A.Qodirov texnogen sivilizatsiyaning vujudga kelishi va tarqalishini globallashuv jarayonining vujudga kelishiga sabab bo‘lgan omil sifatida qaraydi.</p>
<p>S.Xoking – texnogen sivilizatsiya sharoitida texnika vositalari va inson ongi o‘rtasidagi dialektik aloqadorlik asosida shiddatli kurash yuzaga kelishi va uning oqibatida insoniyat hayotidagi yalpi inqiroz kompyuter texnologiyalari taraqqiyoti tufayli ham sodir bo‘lishi mumkinligi haqida fikrni ilgari suradi.</p>	<p>S.I.Nekrasov, N.A.Nekrasovalar fikricha «Texnogen sivilizatsiya, (so‘zmaso‘z – texnologiya asosida ishlab chiqarilgan sivilizatsiya) – ilmiy va texnologik taraqqiyotning joriy etilishi tufayli yuzaga kelgan hozirgi sivilizatsiya davri bo‘lib, jamiyatda yuzaga keladigan har qanday muammolarni hal etish vositasidir»²¹.</p>	<p>J.Ochilov esa texnogen sivilizatsiya kishilar madaniyatining hozirgi bosqichi, kelajak avlodlar turmush tarzi uchun zarur shart-sharoit yaratishga yo‘naltirilgan jamiyatning rivojlanish bosqichi ekanligiga e‘tibor qaratadi,</p>
<p>K.Shvab – bugungi texnogen sivilizatsiya hali o‘zining eng yuksak cho‘qqisiga chiqmaganini, texnologiyalar o‘zining tub burilish nuqtasiga tobora yaqinlashib bora-yotganligini va bir qancha potensial xavf-xatarlar mavjudligini esdan chiqarmaslikni, shuning bilan birga texnika va texnologiyalar atrof-muhitni asrash va qayta tiklash imkoniyatlari ham paydo bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi.</p>	<p>V.A.Kutiryov texnogen sivilizatsiyani «texnik va axborot rasonalligi ustun bo‘lgan universal tizimlar va tarmoqlar sivilizatsiyasi»²² va «faqat texnik usulda yaratilgan va tabiiy-ijtimoiy muhit chegaralarini buzadigan sun‘iy (mashina) muhitdir»²³. – deb ataydi.</p>	<p>D.Muratova va N.Ochilovalar texnogen sivilizatsiya turli tahdidlarni kirib kelishida vosita bo‘lib xizmat qiladi, deb hisoblaydi.</p>

1-rasm. «Texnogen sivilizatsiya» tushunchasiga turli yondashuvlar

O‘zbek olimlari «texnogen sivilizatsiya» tushunchasiga ilmiy ta’rif berar ekan, avvalo, uning o‘ziga xos (ijobiy va salbiy) tomonlariga alohida e‘tibor qaratish lozim ekanligiga alohida to‘xtaladi. Ammo olimlarimizning ilmiy ishlarida «texnogen sivilizatsiya» tushunchasining mukammal ilmiy ta’rifi bo‘yicha

¹⁹ Хантингтон С. Цивилизациялар тўқнашуви. – Тошкент: Нурбек Алимовнинг «Alimoff Team – Ёшлар ёшлар учун!» лойиҳаси бўйича ўзбек тилига таржимаси, 2020. 75 б.

²⁰ Степин В.С., Кузнецова Л.Ф. Научная картина мира в культуре техногенной цивилизации. – М.: ИФ РАН, 1994. – 3 с.

²¹ Некрасов С.И., Некрасова Н.А. Философия науки и техники: тематический словарь справочник. – Орёл: ОГУ, 2010. – 275 с.

²² Кутырёв В.А. Последнее целование. Человек как традиция. – СПб.: Алетейя, 2015. – 45 с.

²³ Кутырёв В.А. Последнее целование. Человек как традиция. – СПб.: Алетейя, 2015. – 45 с.

yakdillikning yoʻqligini, mualliflarning ushbu tushunchaga nisbatan qarashlarida oʻzlari oʻrganayotgan masalalarning yoʻnalishlaridan kelib chiqqan holda yondashganligini koʻrishimiz mumkin. Xususan, S.Otamuratov uni rivojlanishda orqada qolgan yoki endi rivojlanayotgan mamlakatlar manfaatdorligi rivojlangan davlatlar manfaatdolidan kam ekanligi, salbiy oqibatlarining anglanmayotganligi ular uchun fojia ekanligiga eʼtibor qaratganligini, A.Qodirov ham texnogen sivilizatsiyaning vujudga kelishi va tarqalishini globallashuv jarayonini vujudga kelishiga sabab boʻlgan omil sifatida qaraydi. J.Ochilov texnogen sivilizatsiyaning millatlar va xalqlar buguni va kelajak hayotidagi iqtisodiy va ekologik turmush tarzi uchun zarur sharoit va imkoniyatlarga ega boʻlgan jamiyat rivojlanish bosqichi ekanligini qayd etadi. D.Muratova va N.Ochilovalar texnogen sivilizatsiya inson ongi va dunyoqarashiga, uning maʼnaviy barkamolligiga taʼsir qiluvchi tahdidlarni kirib kelishida vosita sifatida xizmat qiladi, deb hisoblaydi. Shu maʼnoda ularning qarashlari muayyan jihatdan ushbu tushunchaning mazmun va mohiyatini ochib berishga yordam beradi, deb hisoblaymiz.

Ilgari surilgan fikrlarni asoslash va aholining mavzu yuzasidan ijtimoiy fikrini aniqlash maqsadida 2022-yil dekabr – 2023-yil yanvar oylarida onlayn tarzda butun respublika miqyosida sotsiologik soʻrovnoma oʻtkazildi. Unda 1052 nafar respondent (jami ishtirokchilarning 65,5%i 17–21 yoshdagilar) ishtirok etdi. Soʻrovnomaga muvofiq, «Texnogen sivilizatsiya tushunchasining mazmun-mohiyatini tushunasizmi?» – degan savolga respondentlarning 32,3% (340 nafar)i «Ha, bilaman»; 41,3% (434 nafar)i «Qisman bilaman»; 11,3% (119 nafar)i «Faqat tushuncha nomini eshitganman»; 12,7% (134 nafar)i «Bu qiziqarli, bilishni xohlayman»; 2,4% (25 nafar)i «Bilmayman, bilishni xohlamayman» degan javobni berishgan.

6. "Техноген цивилизация" тushunchasining mazmun-mohiyatini tushunasizmi?

1 052 ответа



2-rasm. «Texnogen sivilizatsiya tushunchasining mazmun-mohiyatini tushunasizmi?» degan savolga respondentlarning javoblari.

Sotsiologik soʻrovnomamizda ishtirok etgan respondentlarning aksar qismi, Yaʼni 240 nafari (22,8%) oliy maʼlumotli, 19 nafari (1,8%) fan nomzodi (PhD), 6 nafari (0,6%) fan doktori (DSc), 462 nafari (43,9%) tugallanmagan oliy

ma'lumotga ega ekanligini hisobga olsak, chindan ham texnogen sivilizatsiyaning mazmun-mohiyatini bilish muhim ekanligini, buni o'rganish (ayniqsa, yoshlar o'rganishi) borasidagi fikrimiz nechog'lik asosli ekanligi ayon bo'ladi.

Nazarimizda texnogen sivilizatsiya avvalo inson aql-zakovati, intellektual salohiyati va yaratuvchanlik faoliyatining natijasidir. U inson, jamiyat va mamlakatlarga qanday ta'sir qilmasin, taraqqiyot sari doim yuksaklik sari intiladigan umuminsoniy yutuq hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan «texnogen sivilizatsiya» – insonlar dunyoqarashi, madaniyati va yashash tarzini o'zgarishiga olib kelayotgan fan, texnika va texnologiya sohasidagi yangiliklarni o'z ichiga oluvchi sivilizatsiyaning yangi bosqichidir.

Texnogen ong yaratilayotgan, kashf qilinayotgan yangi-yangi texnika va texnologiyalardan foydalanish samaradorligini oshirishga xizmat qiladigan ong shakli sifatida takomillashmoqda. Texnogen ong kishilarning texnika va texnologiyalardan o'zi va o'zgalarning manfaatlarini inobatga olgan holda ezgu va oliyjanob maqsadlar yo'lida foydalanishga undaydigan ijtimoiy ong shaklidir.

Dunyo mamlakatlari ishlab chiqarish jarayonlarida texnika imkoniyatlaridan foydalanishda ham ijobiy natijalarga erishmoqda. Masalan, AQSH milliy daromadining 66,3% sanoatda hosil qilinadi²⁴. Dunyo mamlakatlarida texnika va texnologiyaga oid kashfiyotlarning jadalligi, texnika vosilarini ishlab chiqarishdan olinadigan daromad miqdori, uning mamlakat YaIMning qancha qismini tashkil qilishi, ishlab chiqarishda sanoatning ulushi kabi omillardan kelib chiqib, texnogen ongning rivojlanganlik darajasi borasida dunyo mamlakatlarini makon va zamon nuqtai-nazaridan bir nechta guruh va bosqichlarga ajratish mumkin. (1-rasm).


Texnogen ongning rivojlanganlik darajasi	
Makon nuqtayi nazardan	Zamon nutayi nazardan
<p>1. Texnogen ong yuqori darajada rivojlangan mamlakatlar. Bularga AQSH, Kanada, Yevropa Ittifoqi tarkibidagi mamlakatlar, Rivojlangan Sharq davlatlari – Yaponiya, Xitoy, Singapur, Janubiy Koreya, Avstraliya va boshqa taraqqiy etgan davlatlar;</p> <p>2. Texnogen ong o'rta darajada rivojlangan mamlakatlar – rivojlanayotgan davlatlar kiradi. Lotin Amerikasi, Rossiya, Turkiya, rivojlanayotgan Osiyo mamlakatlari, Yaqin Sharq va Sharqiy Yevropa va boshqa mamlakatlar;</p> <p>3. Texnogen ong quyi darajada rivojlangan mamlakatlar xos bo'lib, bularga asosan uzoq yillardan buyon siyosiy beqarorlik hukm surayotgan, iqtisodiy rivojlanishdan orqada qolgan, qashshoq mamlakatlar kiradi. Afrika va Osiyoning kam taraqqiy etgan davlatlari.</p>	<p>1-bosqich. Qadimgi davrdan O'rta asr oxirlarigacha bo'lgan davr.</p> <p>2-bosqich. G'arb Uyg'onish davridan II-Jahon urushigacha bo'lgan davr.</p> <p>3-bosqich. XX asrning II yarmi va XXI asrning boshlarigacha bo'lgan davr.</p> <p>4-bosqich. XXI asrning boshidan to hozirgacha bo'lgan davr.</p>

3-rasm. Texnogen ongning rivojlanganlik darajasi jadvali.

²⁴ AQSH. https://uz.wikipedia.org/wiki/Amerika_Qo%CA%BBshma_Shtatlari [10.03.2023]

Jamiyatning milliy taraqqiyotida ijtimoiy ongning texnogen yangilanish jihatini shartli guruhlashtirish mumkin. Birinchidan, innovatsion texnika va texnologiyani ishlab chiqarishga qo'llash orqali aholi turmush darajasi farovonligini ta'minlash bo'lsa, ikkinchidan, inson tafakkurining texnika va texnologiya taraqqiyotidan ortda qolishi, oxir-oqibatda, bashariyat taqdirini halokatga mahkum etish holatini anglash o'ta muhimligi ilmiy tadqiqotlarda ta'kidlangan²⁵. Zamonaviy oliy sifatli texnika va texnologiya vositalarini ishlab chiqargan mamlakatlar texnotransnatsional sivilizatsiya darajasida o'zga xalq va millatlarni «qullikka» solishi kuzatilmoqda.

Texnogen sivilizatsiya sharoitida texnogen ongning shakllanishi kishilar moddiy farovonligini oshishiga xizmat qiladi. Lekin texnogen ongning inson intellekti imkoniyatlaridan oshib ketishi kishilar uchun jiddiy xafv-xatarlarni keltirib chiqarishi ham mumkin. Bizning nazarimizda texnogen ong inson ongidan ilgari ketishi quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi;



4-rasm. Texnogen ongning inson ongdan o'zib ketishining oqibatlari.

«Texnogen ongning rivojlanishiga ikki tomonlama qarash to'g'ri bo'ladi. Birinchidan, u yangi texnika va texnologiyani yaratishga hamda bu bilan insonlarning moddiy farovonligini oshishiga yordam beradi. ... Shu bilan birga, texnika va texnologiyani boshqarish imkoniyati inson qo'li va intellektual salohiyati darajasidan ilgari ketishi uning, oxir oqibatda, o'zini o'zi halokatga mahkum etishi mumkinligini ham hisobga olish o'ta muhim»²⁶.

²⁵ Отамуратов С. Глобализация: миллатни асраш масъулияти (сиёсий-фалсафий кырралари) – Тошкент: O'zbekiston NMIU, 2018. – 128 б.

²⁶ Отамуратов С. Глобализация: миллатни асраш масъулияти. Т.: "O'zbekiston", 2018. – 128 б.

O'zbekistonning axborotlashgan jamiyat rivojida texnogen munosabatlarga transformatsiyasi axloqiy omilga tayanishi, milliy-diniy qadriyatlarning qadsizlanishi, aholining ongida unga "revansh" sifatida diniy fonning faollashuvida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda rossiyalik olimlar I.S.Baklanov, S.I.Pelevin texnogen ongning inson ijodiy faoliyatida elemenlarning uyg'unlashtirishi bilan birga, «...doimiy ravishda axloqiy va aksiologik xarakterga ega bo'lgan texnika va texnologiyani qanday qilib qo'llash mumkinligini aks ettiradi», degan fikriga qo'shilamiz²⁷. Bizning fikrimizcha, texnogen ong kishilarning texnika va texnologiyaga nisbatan axloqiy va aksiologik munosabatlar tizimining amaliyoti sifatida tushuntirish mumkin. Zero, «Har bir ilmiy yangilik, yaratilgan kashfiyot – bu yangicha fikr va dunyoqarashga turtki beradi»²⁸. Texnika va texnologiya sohasidagi erishilgan yutuqlar oqimi insoniyat istiqbolida milliy madaniyatning rivojlanish tendensiyalarini tushunishni murakkablashtirmoqda. Bilaks, millatning kelajagi texnika va texnologiyalar taraqqiyoti bilan uzviy holda o'zining milliy mentaliteti va o'ziga xosligini mustahkam saqlab qolishga intilishini kuchaytiradi. Natijada, texnomuhit milliy-diniy qadriyatlarni ommalashuvi bilan har bir fuqaroda o'zlikni anglash, muayyan millatga mansublik (identifikatsiya) muammosini keltirib chiqaradi. Texnogen jamiyatda ijtimoiy ongda ob'yektiv reallikning in'ikosi shakliy tusga kirishi bilan mazmunan etnokonfessionallikdan «begonalashadi». Chunki milliy qadriyatlarni amaliyoti formal «rasmiyatchilik», dindorlikda esa siyosiy nigilizm ommalashadi. Jamiyatning ma'naviy-axloqiyliги xorijiy begona madaniyatlar bilan omuxta bo'lishi oila va nikohga G'arbning genderlashish yoki feminizmi ham ta'sir etmay qolmaydi.

Dissertasiyaning «**Texnogen sivilizatsiyani yuzaga keltirgan omillar va ularning namoyon bo'lish xususiyatlari**» deb nomlangan ikkinchi bobida texnogen sivilizatsiyaning yuzaga kelishida ijtimoiy, moddiy-ma'naviy ehtiyojlarning o'rni, texnogen sivilizatsiyaning mamlakatlar milliy-ma'naviy taraqqiyotiga ta'siri masalalari tahlil qilingan.

Insoniyat hayotidagi har qanday yangilik yoki kashfiyot insonlar ehtiyojlarining natijasi o'laroq yuzaga keladi. Texnogen sivilizatsiyaning payodo bo'lishi, taraqqiy etishi ham ehtiyoj natijasidir. Texnogen sivilizatsiya va moddiy-ma'naviy ehtiyojlar o'rtasidagi dialektik aloqadorlik mavjud bo'lib, bir tomondan, ehtiyojlar texnogen sivilizatsiyaning yuzaga kelishi va takomillashuvini ta'minlagan. Ehtiyojni qanoatlantirish uchun yo'naltirilgan texnika va texnologiyalar vaqtlar o'tib, kishilarning o'sib borayotgan ehtiyojini to'liq qoplay olmadi. Natijada, yana ham samarasi yuqoriroq, murakkabroq bo'lgan texnika vositalariga ehtiyoj tug'ildi. Bu o'z navbatida yangi texnika vositarining yuzaga kelishiga, kashfiyotlar qilinishiga turtki bo'ldi. Insonlarning ehtiyojlarini qanoatlantira oladigan murakkab vositalarga aylandi. Ikkinchidan, ehtiyojlarni rivojlanishi, uning zamonaviy dunyoda qondirilishi, o'sib boirishi texnogen sivilizatsiya rivoji va takomillashuvi bilan

²⁷ Бакланов И.С., Пелевин С.И. Технологии и технологическое сознание в эволюции постиндустриализма: от информационного общества к обществу знаний и цифровому обществу // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: Философские науки. – Москва, 2022. – № 1.– С. 65.

²⁸ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 41 b.

bevosita bog'liq. Yangi-yangi texnika va texnologiyalar kishilar ehtiyojini qondirish, ko'proq va samaraliroq mahsulot ishlab chiqarish imkonini bergan.


Texnika va texnologiyalar hayotning ajralmas qismiga aylanganidan keyin dunyo mamlakatlarining iqtisodiy hayotida katta o'zgarishlar jarayoni yuz bera boshladi. Texnika vositalarini yaratish, ishlab chiqarish va ularni dunyo mamlakatlariga eksport qilishga intilish ham kuchaydi. Chunki insonlarda doimiy o'sib, o'zgarib boradigan ehtiyojni qanoatlantirish, yana ham qulayroq hayot kechirish imkonini beradigan zamonaviy texnologiyalarga bo'lgan talab kun sayin oshib bormoqda. Mana shu oshib borayotgan talab, ehtiyoj texnika ishlab chiqaruvchi va bu sohada yangilik qiluvchilar faoliyatining jadallashishiga, iqtisodiy imkoniyat va manfaatdorlikning oshishiga olib keldi, farovon hayot kechirishga intilishlarini ham oshirib yubordi. Mamlakatlar tomonidan texnika ishlab chiqarish sohasining qo'llab-quvvatlanishi, ularga turli imtiyozlar, imkoniyat va sharoitlar yaratib berilishi sohaning taraqqiyotiga ijobiy ta'sir o'tkazdi. Buning natijasida mamlakat milliy iqtisodiyotida ham jiddiy ijobiy o'zgarishlar sodir bo'la boshladi. Bugungi avlod zamonaviy milliy-iqtisodiy taraqqiyot faqat va faqat texnika va texnologiya sohasini rivojlantirish orqali yuz berishini anglab yetmoqda. Shuning uchun ham bugungi davrda barcha uchun muhim bo'lgan talab – faqat iste'molchi sifatida emas, balki tayyor mahsulot (zamonaviy texnika va texnologiyalar ishlab chiqarish va sotish) yetkazib beruvchi sifatida yashash taraqqiyotning sharti hisoblanadi. Har bir sohaning istiqboli o'z yo'nalishida texnogen sivilizatsiya taraqqiyoti, takomillashuvi va uning insonparvarlashuvi bilan doim uzviy aloqada kechmoqda. Bu hech bir soha texnogen sivilizatsiyadan ayro holda, uning natijalaridan bahramand bo'lmasdan rivojlana olmasligini tobora isbotlamoqda.

Sanoatlashgan jamiyatning vujudga kelishi, ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, robotlashtirilishi va axborot texnologiyalarining jalb qilinishi natijasida dunyo miqyosida katta-katta iqtisodiy tizimlar yaratildi. Oxirgi o'n yillikda dunyoning eng yetakchi sohasiga aylanib borayotgan, axborot texnologiyalari, vositalari ishlab chiqarish va dasturlar yaratish bilan shug'ullanadigan korxonalar (masalan, «Apple»ning 2021 moliyaviy yil 1 oktabrdan – 2022-yil 30-sentabrgacha yillik daromadi 400 mlrd AQSH dollarga, «Samsung» 2022-yil birinchi choragida 57 mlrd AQSH dollariga yaqin, «LG» 2022-yil 66 mlrd AQSH dollariga yaqin daromad qilgan. ChatGPT 2022-yil noyabrda tashkil qilinib, ikki oyda 1 mln obunachilarga ega bo'lgan.)ning mahsulotlariga talabning keskin oshishi ularning daromadini ham yuqori darajada oshirib yubordi. Demak, aytish mumkinki, bugungi globallashtirish avj olgan davrda mamlakatlar va xalqlar milliy taraqqiyotining asoslarini zamonaviy texnika va texnologiyalar (hamda axborot texnologiyalar)ni ishlab chiqarish va ommalashtirish tashkil qiladi.

Ushbu masalada tadqiqotimiz doirasida o'tkazilgan sotsiologik so'rovdan «Texnogen ong tushunchasining mazmuni sizga tanishmi?» – degan savolga respondentlarning 325 nafari (30,9%i) «Ha, mazmunini bilaman», 417 nafari (39,6%i) «Qisman tushunaman», 118 nafari (11,2%i) «Faqat tushunchani eshitganman», 149 nafari (14,2%i) «Bu qiziqarli, bilishni xohlayman», 43 nafari (4,1%i) «Bilmayman, menga buning qizig'i yo'q» – degan javobni berishgan.

15. Техноген онг тушунчасининг мазмуни сизга танишми?

1 052 ответа




5-rasm. Sotsiologik so'rovnoman namuna

So'rovnoma natijasidan ko'rinib turibdiki, respondentlarning ko'pchiligi «texnogen ong» tushunchasini eshitgan, lekin, uning ma'no-mazmunidan xabarleri yo'q. Shuning uchun ham «texnogen ong» tushunchasining falsafiy mazmunini tushunib yetish texnogen sivilizatsiya sharoitida juda muhim.

Dissertatsiyaning «**Texnogen sivilizatsiyaning yutuqlari va yuzaga keltirgan salbiy oqibatlari o'rtasidagi ziddiyatlar**» deb nomlangan uchinchi bobida texnogen sivilizatsiya va milliy ma'naviy taraqqiyot o'rtasidagi ziddiyatlar aniqlanib, ularni oldini olish bilan bog'liq masalalar tahlil qilinadi. O'zbekistonda texnogen sivilizatsiya yutuqlaridan samarali foydalanish imkoniyatlari ochib berilgan.

Texnogen sivilizatsiya mamlakatlar milliy-ma'naviy taraqqiyotiga qanday ta'sir qildi? Ushbu savolga quyidagilarni javob sifatida keltirish mumkin:



6-rasm. Texnogen sivilizatsiya mamlakatlar milliy-ma'naviy taraqqiyotiga ta'siri to'g'risida.


Ko'plab olimlar texnogen sivilizatsiyaning faqat rivojlanish yoki moddiy farovonlik manbai, imkoniyati deb emas, balki insonlar ma'naviy dunyoqarashiga, madaniyatiga, e'tiqodiga, milliy o'zligiga salbiy ta'sir etuvchi vosita ekanligi

xususida fikr bildirganlar. Bu masalada rus olimi, faylasuf V.S.Stepin «Texnogen sivilizatsiya insoniyatga juda ko‘p yutuqlar keltirganday bo‘lgan edi... Ko‘pchilik odamlar yaxshi kelajakka bo‘lgan o‘z orzu-umidlarini shu sivilizatsiya taraqqiyoti bilan bog‘lagan edilar. Atigi yarim asr oldin aynan texnogen sivilizatsiya insoniyatni o‘zini o‘zi halok etadigan, jar yoqasiga olib kelib qo‘yadigan global inqirozga duchor etishini hech kim xayoliga keltirmagan edi»²⁹ – deya ta’kidlaydi.

Texnogen sivilizatsiyaning salbiy oqibatlari nimalarda namoyon bo‘lishi to‘g‘risida tadqiqotimiz doirasida sotsiologik so‘rovnoma o‘tkazdik. So‘rovnomada «Texnogen sivilizatsiyaning salbiy oqibatlari nimalardan iborat? (bir nechta javobni belgilashingiz mumkin)» – degan savolga jami 1052 ta respondentning 49,7%i (523 nafar) «Yovuz, vayronkor g‘oya va mafkuralar targ‘ibotida texnika asosiy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda», 38,8%i (408 nafar) «Milliy madaniyat, urf-odat va an‘analarga munosabatning salbiylashayotganligida», 55,6%i (585 nafar) «Yosh avlod vakillarini texnika vositalariga qaramligining oshib borayotganligida», «Suverenitet, tinchlik, barqarorlikka tahdidlar ko‘lamining oshib borishida», 2,2%i (22 nafar) «Bilmayman» – degan javoblarni berishgan.

11. Техноген цивилизациянинг салбий оқибатлари нималардан иборат? (бир нечта жавобни белгилашингиз мумкин)

1 052 ошветга



7-rasm. «Texnogen sivilizatsiyaning salbiy oqibatlari nimalardan iborat?» – degan sotsiologik so‘rovnoma savoliga respondentlarning javoblari.

Javoblardan ko‘rinib turibdiki, aksariyat kishilar texnogen sivilizatsiyaning salbiy oqibatlari borligini bilishadi va u ko‘proq qaysi yo‘nalishlar orqali namoyon bo‘layotganligidan ham xabarlar bor, lekin texnogen sivilizatsiyaning salbiy oqibatlariga beparvo, e‘tiborsiz kishilar ham borki, ularni o‘z vaqtida ogoh qilish, salbiy oqibatlarni bartaraf etishning muayyan choralarini ko‘rish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Texnogen sivilizatsiya sharoitida namoyon bo‘ladigan salbiy oqibatlarning o‘ziga xosligi shundaki, u ta’sir qilish jarayonida ko‘zga ko‘rinmaydi, qachonki muayyan salbiy oqibatlar moddiy kuchga aylansagina uni payqash, oldini olish choralarini ko‘rish, bartaraf etish yo‘llarini izlash va amaliyotga tatbiq qilish mumkin bo‘ladi. Shuning uchun ham texnika va texnologiya vositalarining kelib chiqish mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlarini to‘g‘ri baholay olish, natija beradigan choralarini qo‘llash muhim hisoblanadi. Buning uchun har bir kishi texnikadan foydalanishda muayyan axloq qoidalariga amal qilishi, o‘z xatti-harakatlarini doimiy nazorat qilishi talab qilinadi.

Bizning nazarimizda texnogen sivilizatsiyaning barcha sohalarga o‘tkazayotgan salbiy ta’sirlari quyidagilarda ko‘rinadi: birinchidan, insonlarda moddiy ne‘matlarga

²⁹ Степин В.С. Философия в эпоху перемен // Вестник Московского университета. Серия 7. Философия. №4. 2006. С–18.

intilish hissining haddan tashqari oshib ketishi va ma'naviy-ruhiy ehtiyojlarni qanoatlantirishga e'tiborning susayib ketayotganligi. Natijada axloq, madaniyat, milliy mentalitet, ma'naviy qadriyatlar asta-sekin o'zining maqomini pasaytirmoqda. Bugun ko'p yoshlar oson va tez boyib ketishni va o'zlarining maqsadlarini moddiy boylikda deb shu kayfiyatda yengil hayot tarzini tanlab ko'p salbiy harakat qilishlariga sabab bo'lmoqda; ikkinchidan, insonlarga «zavq» berishi mumkin bo'lgan barcha zamonaviy xatti-harakat va jarayonlarni «qadriyat» sifatida qaror topayotganligi. Ming yillar davomida shakllangan va asrab-avaylab kelinayotgan urf-odat, an'ana, marosim va qadriyatlar nufuzi pasayishiga bugun internet tarmoqlari orqali ommalashtirilayotgan, ma'nosiz, bachkana harakatlarning qadri oshib borishi juda katta zarba bo'layotir. «Ommaviy madaniyat»ning turli unsurlari kirib kelmoqda. Buning ta'siriga tushayotgan, jozibasiga qiziqib unga ergashayotgan avlodlar soni tobora ortib bormoqda; uchinchidan, insonlar o'rtasida o'zaro hurmat, mehr-oqibat, muhabbat kabi insoniy hislarning yo'qolib borayotganligi. Texnika va texnologiyalar imkoniyati, ayniqsa, axborot texnologiyalari orqali muloqotning tashkil etilganligi, subyektlar o'rtasidagi jonli muloqotlarni izdan chiqarib yubordi. Yaqinlar bilan suhbatlashish, ularning holidan xabar olish, xursand qilish shu darajada kamayib ketdiki, endi ulardan qo'limizdagi aloqa vositalari orqali xabardor bo'lishning o'zi yetarli degan xulosaga kelib qoldik. Natijada, turli insoniy his-tuyg'ular ko'pchilikka begona bo'lib qoldi; to'rtinchidan, insonlarning, ayniqsa, yoshlarning o'z kuch va imkoniyatlariga ishonmasdan, yengil-yelpi hayotga berilib, «zamonaviy»likka mahliyo bo'lib, ijtimoiy tarmoqlar va media mahsulotlar orqali tanilayotgan shaxslar hayotiga yoki harakatiga taqlid asosida yashashga intilishlarida ko'rinadi. Taqlid bugungi kunda o'smirlar orasida keng yoyilib borayotgan odatga aylanib ulgurdi; beshinchidan, texnogen sivilizatsiya milliy-ma'naviy qadriyatlarga millatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarga ham turlicha ham ijobiy, ham salbiy ta'sir qilmoqda. Bu bugungi globallashuv jarayonida yanada avj olmoqda. Mamlakatlar moddiy farovonlik darajalariga ko'ra toifalarga ajralib, rivojlanishdan orqada qolgan mamlakatlar taraqqiyot yo'liga kirgan mamlakatlarga tobora bog'lanib qolmoqda. Bu esa qashshoq yoki kambag'al mamlakatlarning o'z milliy suverenitetini boy berilishiga olib keladigan darajadagi xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda; texnogen sivilizatsiya o'zining yuqori darajadagi ta'sir kuchini namoyon qilish orqali milliy-ma'naviy qadriyatlarga millatlar va xalqlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda yiroqlashish yoki bo'linish kuchaydi. Bu jarayon bugungi globallashuv jarayonida yanada avj olmoqda. Mamlakatlar moddiy farovonlik darajalariga ko'ra toifalarga ajralib, rivojlanishdan orqada qolgan mamlakatlar bilan tafovut tobora yiroqlashmoqda va ular taraqqiyot yo'liga kirgan mamlakatlarga tobora bog'lanib qolmoqda. Bu esa qashshoq yoki kambag'al mamlakatlarning o'z milliy suverenitetini boy berilishiga olib keladigan darajadagi xavf-xatarlarni yuzaga keltirmoqda; oltinchidan, axborotlashgan jamiyat sharoitida media mahsulotlar orqali tarqatilayotgan yot g'oya va mafkuralar ta'sirining kengayib borishi. Bugungi kunda axborot barcha kuchlarning ta'sir vositasiga aylandi. Axborot makonida turli mazmundagi axborotlarning ko'payib borishi axborot iste'mochilarining to'g'ri, haqqoniy, sof axborotlarni saralash imkoniyatini kamaytirmoqda. Bu ko'pchilik yoshlarning ongi


va dunyoqarashining yot g'oya va vayronkor mafkuralar bilan zabt etilishi va oqibatda qandaydir yovuz kuchlarning maqsadlarini amalga oshirishda «ko'maklashib yuboruvchi» vazifasini bajarishida namoyon bo'ladi; yettinchidan, "zamonaviylik" yoki yengil-yelpi hayot tarziga qiziqishning kuchayib borayotganligi. Texnogen sivilizatsiya sharoitida rivojlangan mamlakatlarda insonlar moddiy farovonligining keskin oshishi barcha davlatlar fuqarolarining moddiy boylikka nisbatan intilishining kuchayishiga olib keldi. Natijada oson pul topish va tezda boyib ketish hissi kishilarda kuchaydi. Bunday qarash boylikka intilishning noqonuniy yo'llarini qo'llash natijasida ko'plab qonunbuzarliklar sodir bo'lishiga olib kelmoqda; sakkizinchidan, texnika vositalariga, kompyuter va mobil o'yinlarga yoshlarning tobe'ligi kuchayib, turli salbiy oqibatlarga olib keladigan holatlar ko'payib bormoqda. Kompyuter va mobil o'yinlar turli yot va buzg'unchi g'oya va mafkuralarning targ'ibot vositasi hisoblanganligi bilan xatarlidir. Masalan, «PUBG», «Ko'k kit», «Counter strike» va shu kabi kompyuter va mobil o'yinlarning internet va boshqa axborot vositalari orqali (hattoki, ayrim OAV ning rasmiy kanallarida turli reklama roliklari sifatida) keng targ'ib qilinishi o'smir yoshlarni o'ziga qaratishi oqibatida turli ko'ngilsiz (o'smir yoshdagi bolalarning o'yin qurboniga aylanayotganligi, o'z joniga qasd qilishi) hodisalarni keltirib chiqarmoqda.

Texnogen sivilizatsiyaning turli salbiy oqibatlarini umumlashtirgan holda quyidagi ko'rinishda aks ettirish mumkin:

No	Texnogen sivilizatsiyaning turli salbiy oqibatlari	
1.	Inson hayoti bilan bog'liq bo'lgan individual salbiy ta'sirlar	Inson salomatligiga o'tkazayotgan salbiy ta'sirlar
		Inson ma'naviyati (dunyoqarashi) va ruhiyatiga o'tkazayotgan salbiy ta'sirlar
		Insonlarning bandligi va real daromadlariga salbiy ta'siri
2.	Davlat va jamiyat hayoti bilan bog'liq bo'lgan umumiy salbiy ta'sirlar	Mamlakatlar iqtisodiyotiga o'tkazayotgan salbiy ta'sirlari
		Mamlakatlar suvereniteti va siyosiy barqarorligiga o'tkazayotgan salbiy ta'sirlari
		Mamlakatlar ijtimoiy hayotiga o'tkazayotgan salbiy ta'siri

8-rasm. Texnogen sivilizatsiyaning turli salbiy oqibatlari

Yoshlarning texnogen sivilizatsiyaning salbiy oqibatlaridan qanchalik xabardor ekanligini aniqlash, shuningdek, yoshlarning texnogen sivilizatsiya jarayonlariga nisbatan o'z munosabatlarini bilish va xulosalar qilish maqsadida sotsiologik so'rovnoma o'tkazildi. Ushbu so'rovnoma 2022-yil dekabr – 2023-yil yanvar oylarida Respublikamiz fuqarolari, oliy ta'lim muassasalari talabalari va professor o'qituvchilar o'rtasida o'tkazildi. So'rovnomada 1052 nafar respondent ishtirok etdi. Savollarga respondentlarning javoblari quyidagicha bo'ldi: «Texnogen sivilizatsiya tushunchasining mazmun-mohiyatini tushunasizmi?» degan savolga respondentlarning 32,3%i – «Ha, bilaman», 41,3 %i- «Qisman bilaman», 11,3%i – «Faqat tushuncha nomini eshitganman», 12,7%i «Bu qiziqarli, bilishni xohlayman» – degan javobni berishdi.




9-rasm. Sotsiologik so'rovnomadan namuna

Shuningdek, «Texnogen sivilizatsiya faqat taraqqiyotga xizmat qiladi deb hisoblaysizmi?» degan savolga 49,8% respondent – «Ha, texnogen sivilizatsiya faqat taraqqiyotga xizmat qiladi», 48,5%i – «Yo'q, u tanazzulga ham olib kelishi mumkin», 1,7%i - «Bilmayman», «Bir nima deyish qiyin» yoki «Uni kimlar yaratishiga bog'liq» deb javob berishgan.

9. Техноген цивилизация фақат тараққиётга хизмат қилади деб ҳисоблайсизми?

1 052 ответа



10-rasm. «Texnogen sivilizatsiya faqat taraqqiyotga xizmat qiladi deb hisoblaysizmi?» degan savolga respondentlarning javoblari.

Shuningdek, «Texnogen sivilizatsiya natijalari mamlakatlar milliy taraqqiyotiga qanday ta'sir qiladi?» degan savolga ishtirokchilarning 43,7%i «Mamlakatlar taraqqiyotining asosiy omili hisoblanadi», 28,3%i esa «Faqat manfaatdor kuchlarning taraqqiyotiga xizmat qiladi», 25,9%i - «Gegemon davlatlarga qashshoq mamlakatlar ustidan doimiy siyosiy nazorat qilishlarini ta'minlaydi», 2,1%i «Bilmayman, javob berishga qiynalaman» degan javobni belgiladilar. Hamda «Sizningcha mamlakatimizda texnogen sivilizatsiyani rivojlantirish uchun imkoniyat va sharoitlar yetarlimi?» – degan savolga ishtirokchilarning 39,4%i «Ha, yetarli», 37,8%i «Yo'q, yetarli emas», 22,7%i «Bilmayman, javob berishga qiynalaman» – degan javobni berishgan.

Respondentlar tomonidan berilgan javoblar bo'yicha quyidagi umumiy xulosalarni chiqarish mumkin: birinchidan, aholining katta qismi milliy taraqqiyotga befarq emaslar va unga nisbatan texnogen sivilizatsiyaning ijobiy va salbiy ta'sirlari haqida ma'lum darajada tasavvurga ega; ikkinchidan, ular orasida texnogen sivilizatsiyaning salbiy oqibatlariga yetarlicha baho bermayotganlari yoki ushbu jarayonlarga beparvo bo'lganlari ham borligini e'tirof etish mumkin. Ushbu holat fuqarolarning intellektual salohiyatni hamda milliy ong negizida texnogen ongni shakllantirish kerakligini tushunadilar; uchinchidan, respondentlarning yarmiga yaqini mamlakatimizda texnogen sivilizatsiyani rivojlantirish uchun imkoniyatlar yetarli emasligini, bu boradagi ishlarni kuchaytirish zarurligini ta'kidlashgan. Bu o'ta muhim vazifa mamlakatda davlat siyosatida ustuvor yo'nalishni tashkil qilishini taqozo qilmoqda.

Ushbu respondentlarning fikrini hisobga olgan holda mamlakatimizda texnogen sivilizatsiyaning yutuqlaridan samarali foydalanish uning salbiy ta'sirlaridan himoyalani, yoshlarda yaratuvchanlik qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishni uchun tegishli nazariy xulosalar hamda amaliy tadbirlarni ishlab chiqish milliy taraqqiyotni ta'minlashning zaruriy ehtiyoji hisoblanadi. Bizning fikrimizcha, mamlakatimizda texnogen sivilizatsiyani rivojlantirishda quyidagilarni imkoniyat sifatida baholashimiz mumkin: birinchidan, mamlakatimizda intellektual salohiyatni rivojlantirish imkoniyatining mavjudligi; ikkinchidan, mamlakat fuqarolari tarkibida yoshlar sonining ko'pligi; uchinchidan, millatimiz asrlar davomida ilm-fan va madaniyat o'chog'i sifatida shakllangani hamda moddiy va ma'naviy meroslarga boy ekanligi; to'rtinchidan, milliy urfodat, an'ana va marosimlarni saqlab qolish davlatning muhim siyosati darajasiga ko'tarilganligi; beshinchidan, milliy ta'lim tizimini shakllantirish va uni isloh qilish borasidagi ishlarning jadalligi va yoshlarda zamonaviy bilim (IT-ta'lim, dasturlash, robototexnikaga oid bilimlar) olishga intilish va qiziqishning yuqoriligi; oltinchidan, texnika va texnologiya ishlab chiqarishda dunyoning ilg'or davlatlari bilan mustahkam hamkorlikning yo'lga qo'yilganligi; yettinchidan, barcha sohalarni raqamlashtirish va IT-texnologiyalar bilan ta'minlash jarayonlarining jadal yo'lga qo'yilayotganligi.

Keltirilgan imkoniyatlardan samarali foydalanish va ularni amaliyotga tatbiq qilish uchun fuqarolarda mamlakat milliy taraqqiyotiga daxldorlik hissini shakllantirish, texnogen sivilizatsiyani rivojlantirishda dunyo hamjamiyati orasida o'ziga xos maqomga ega bo'lishni milliy g'oya darajasiga ko'tarish, texnogen ongni milliy ong darajasiga ko'tarish samarali, manfaatli natijalarni keltirib chiqaradi.

XULOSA

Texnogen sivilizatsiyaning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy taraqqiyotda namoyon bo'lish jarayonlarini o'rganish, tahlil qilish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Texnogen sivilizatsiya insoniyat mehnati, intellektual salohiyati, aql-zakovati va tafakkurining mahsuli. Shuning uchun ham texnogen sivilizatsiyaning rivojlanish yo'li quyidan yuqoriga qarab doimiy takomillashib, murakkab ahamiyat kasb etib boraveradi. Bu bugungi kunning ulkan talabi va insoniyatning yutug'i sifatida qadrlanganligi va e'tirof etilganligi bilan xarakterlanadi.

2. Bugungi kunda qaysi mamlakat texnika va texnologiya ishlab chiqarish, ommalashtirish, amaliyotga joriy qilish sohasida yetakchilik qilsa, o'sha mamlakat dunyo davlatlariga o'zining iqtisodiy, siyosiy ta'sirini ham kuchaytirmoqda.

3. Texnogen sivilizatsiya taraqqiyoti mamlakatlar va xalqlarning moddiy manfaat ko'rishining imkoniyati sifatida ko'rilmogda. Uning rivojidan ayrim mamlakatlar va xalqlar moddiy manfaat ko'rar ekan, texnika va texnologiyalarning taraqqiyoti natijasida kelib chiqadigan salbiy ta'sirlar va ulardan himoyalalanish zarurligi murakkablashib boraveradi.

4. Texnogen ongning shakllanishi yangi texnika va texnologiyalarni kashf qilish, ishlab chiqarish va ommalashtirish, texnika va texnologiya sohasida novatorlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarish jarayonlarini jadallashtiradigan eng asosiy omil ekanligi oydinlashmoqda.

5. Texnogen ong mamlakat, millat yoki xalqlarga hos bo'lgan milliy ongga ta'sir o'tkazib, uning inqirozini tezlashishiga xizmat qilmoqda. Aslida, texnogen ong milliy ongni barbod qilishga emas, balki, milliy ongni yanada mustahkam bo'lishini ta'minlashga xizmat qilishi lozim.

6. Texnogen sivilizatsiya nafaqat insonlarning moddiy hayoti va turmush tarzini, balki ularning ongi, dunyoqarashi va ruhiyatini ham o'zgarishiga olib keladigan umuminsoniy jarayondir. Bunday o'zgarishlar insonlar dunyoqarashida ham ijobiy, ham salbiy ta'sirlar sifatida namoyon bo'lmoqda.

7. Texnogen sivilizatsiya taraqqiyoti bilan birga global muammolar ham o'z ta'sir ko'lamini kengaytirmoqda. Bir qancha global muammolar o'nlab bo'lmas darajaga yetib keldiki, bu inson va tabiat o'rtasidagi fojia sifatida qaralmoqda. Endi texnika va texnologiyalar imkoniyatlaridan foydalangan holatda global muammolarga yechim topish zarurati paydo bo'ldi.

8. Jahonda ro'y berayotgan texnogen sivilizatsiya jarayonlari O'zbekistonda ham texnika va texnologiyani rivojlantirish imkoniyatlarini yuzaga keltirmoqda. Lekin bu imkoniyatdan samarali foydalanish uchun texnogen sivilizatsiya natijalari «iste'molchi»si emas, balki, bu borada «texnik va texnologik xab» (lokomotiv) maqomiga chiqish va istiqbolda texnologik markazga aylanishi ham moddiy, ham ma'naviy manfaat keltiradi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.F.01.05.
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ УЗБЕКИСТАНА**

ТАШКЕНТСКИЙ ХИМИКО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

АВЛАКУЛОВ АКТАМ МАВЛОНКУЛОВИЧ

**ПРОЦЕССЫ ПРОЯВЛЕНИЯ ТЕХНОГЕННОЙ ЦИВИЛИЗАЦИИ В
ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОМ И ДУХОВНОМ РАЗВИТИИ**

**09.00.02 – Философия сознания, культуры и форм практики
(философия политики)**

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО
ФИЛОСОФСКИМ НАУКАМ**

Ташкент - 2023

Тема диссертации на соискание ученой степени доктора философии (PhD) зарегистрирована Высшей аттестационной комиссией под номером B2022.1.PhD/Fal660.

Диссертация выполнена в Ташкентском химико-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) вложен в веб-сайт Ученого совета (ik-falsafa@nuu.uz) а также в информационно-ресурсный портал «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Атамуратов Садулла

доктор философских наук, профессор

Официальные оппоненты:

Абдуллаева Насиба Буруновна

доктор философских наук, доцент

Кушаев Умиджон Рахимович

доктор философских наук, доцент

Ведущая организация:

Национальный исследовательский университет «Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства»

Защита диссертации состоится «03» июль 2023 года в 10:00 часов на заседании Научного совета № DSc.30/03/30.12.2019.F.01.05 при Национальном университете Узбекистана (Адрес: 100174, г. Ташкент, улица Университетская, дом 4. Малый зал Маданият саройи. Тел.: (99871) 246-02-24; факс: (99871) 246-02-24; e-mail: наука@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирована под № 94). (Адрес: 100174, г.Ташкент, Университетская улица, дом 4. Административное здание Национального университета Узбекистана, 2-этаж, 4-комната. Тел.: (99871) 246-02-24; факс: (99871) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан «23» июнь 2023 года.

(реестр протокола рассылки № 12 от «23» июнь 2023 года).

И.С.Саифназаров,

Председателя ученого совета по присуждению ученых степеней, доктор философских наук, профессор

Г.М.Рузматова,

ученый секретар научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философских наук, профессор

Дж.С.Раматов,

председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор философских наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. Бурный прогресс науки, техники и технологии определяет современный облик стран мира. Благодаря внедрению в жизнь общества крупного промышленного производства в жизни народов и наций формируется новая культура политического управления экономикой. По случаю 75-летия ООН Academic Impact Объединенных Наций (UNAI) провел вебинар на тему «Зеленые города и экономика: решения от академических кругов»¹, на котором были проанализированы проблемы техногенной цивилизации, глобальные проблемы мирового сообщества. В частности, техногенная культура XXI века выражается в глобальном масштабе экологических, урбанистических, демографических проблем, несравнимом росте потребности человека в продуктах питания и запасах энергии, политических конфликтах и разногласиях между странами. Уникальные положительные и отрицательные эффекты процесса развития современных технологий проявляются в виде угрозы техногенной цивилизации. Этот случай подтверждает актуальную важность научного концептуального изучения политико-философских особенностей «техногенной цивилизации» наряду с аспектом социально-экономического явления.

В ряде ведущих стран мира существуют исследовательские центры, которые анализируют положительные и отрицательные стороны техники и технологий и разрабатывают рекомендации по защите от их негативных последствий. В частности, исследовательский центр Morgan Stenli (Морган Стэнли) в США, «Независимый медиа-центр, Индимедиа», «Национальный исследовательский совет США», «Центр информационной безопасности» ФСБ в Российской Федерации, и исследовательские центры, такие как «Национальный институт научно-технической политики» (NISTEP) в Японии, изучают различные последствия технологического развития и его негативные последствия, давая рекомендации по защите от последствий. Отсюда видно, что изучение и выявление различных последствий техногенной цивилизации и организация борьбы с ее негативными последствиями имеет неотложное значение.

На новом этапе развития Узбекистана переход от традиционного общества к индустриальному обществу стал центральным вопросом политики восстановления национальных обычаев, традиций, ценностей и наследия, формирования конституционно-правовых основ социального государства. Ведь сохранение национальной культуры, традиций и ценностей нашей страны под влиянием глобальной техногенной цивилизации определяет воспитание совершенного поколения. Поэтому инициатива Президента Узбекистана Ш.М.Мирзиёева в его Послании «Начнем новое общенациональное движение – правильного питания и здорового образа жизни» служит общенациональной программой по предотвращению угроз

¹ 75 для UN75: 75 минут беседы// <https://www.un.org/ru/136695> (Murojaat sanasi 06.04.2023)

техногенной цивилизации. Установление отношений сотрудничества со странами мира в рамках техногенной цивилизации Узбекистана, защита от изменений, происходящих на мировой политической и идеологической аренах, использование интеллектуального и инновационного потенциала для достижения развития, формирования инновационной способности граждан, современные технологии уделяют внимание разработке инструментов.

Данное диссертационное исследование в известной мере служит выполнению задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-4947 от 7 февраля 2017 года «О стратегии действий по дальнейшему развитию Республики Узбекистан», №УП-5544 от 21 сентября 2018 года «Об утверждении стратегии инновационного развития Республики Узбекистан в 2019-2021 годах», №УП-6079 от 5 октября 2020 года «Об утверждении стратегии «Цифровой Узбекистан – 2030» и мерах по ее эффективной реализации», №УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» и других нормативно-правовых документах, связанных с развитием инновационных технологий.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в рамках приоритетного направления развития науки и технологий Республики I. «Социальное, правовое, экономическое, культурное, духовно-просветительское развитие информационного общества и демократического государства, формирование системы инновационных идей и путей их реализации».

Степень изученности проблемы. Научно-методологической основой данного исследования являются концептуальные идеи о научно-техническом развитии общества и обеспечении достойного образа жизни для каждого гражданина, которые содержатся в трудах, выступлениях и докладах Первого Президента Республики Узбекистан И.А.Каримова и Президента Ш.М.Мирзиёева².

С середины XX века актуальной темой общественных наук является изучение содержания и сущности понятия техногенной цивилизации и анализ ее конкретных аспектов как процесса. Философские анализы в области теории техногенной цивилизации проводились в таких приоритетных областях, как глобальная культура, конфликт капиталистических общественных отношений, сущность «постчеловека» и мутация в человеческой природе, влияние научно-технической революции эпохи, угрозы судьбе человечества³. В то же время можно наблюдать

² См.: Каримов И.А. Сочинения тома 1-23. – Ташкент: O'zbekiston, 1996 – 2015; Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – Toshkent: O'zbekiston, –2016; Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash — yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – Toshkent: O'zbekiston, – 2017; Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent: O'zbekiston, – 2017; Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent: O'zbekiston, – 2017.

³ Beck U. Was ist Globalisierung? Frankfurt am Main, 2002. P. 44; Drucker P.F. Post-Capitalist Society. N.Y.: Harper-Collins Publ., 1995.-232 p; Robertson R. Globalization Theory and Civilization Analysis//Comparative Civilizations Review. 2007. Vol. 17. –P. 46-56; Quentin J.P. Mutation //New technocratic wave in the West. -M.: Progress, 2000. -456 p; Медоуз Д. Пределы роста. Сложные положения человечества. –М.: Изд. Московского

пессимистические взгляды на течения техногенной цивилизации человеческого общества, на «конец истории» как на конфликтный фактор, ведущий к окончательной форме культуры.

В общественных науках стран СНГ также получили развитие социально-философские анализы и интерпретации техногенной цивилизации, а в ряде случаев и ее концепции⁴. Научно, в литературе, научно-технологической, технологической, техногенной культуре в постиндустриальном обществе вместе с положением и мироощущением человека происходит духовно-техническая девальвация человека вопреки гуманизации техники через превращение в научно проанализированы антропогенное общество, возникновение техногенного человека в контексте цивилизации и культуры. В результате в научной литературе продвигаются идеи определения политических путей и принципов государств, связанных с обеспечением жизнедеятельности «техногенного человека» и «пост-человека», на основе определения приоритетных направлений социального развития в сфере глобальной социальной культуры в техногенном обществе. В настоящее время, парадигмы цивилизации С.Г.Кара-Мурзы вызывают споры в научном сообществе СНГ, но положительное признание получает концепция техногенной цивилизации В.С.Степина⁵.

В Узбекистане не проводились специальные научные изыскания по техногенной цивилизации, но экологами, экономистами и социологами⁶ исследовались проблемы индустриализации крупных промышленных

университета, 2001. – 207 с; Toffler A. ‘Future Shock’ Adviser to Leaders, Dies at 87 // Bloomberg News – Нью-Йорк: 2016. – 560 р; Фукуяма Ф. Наше постчеловеческое будущее: Последствия биотехнологической революции // Пер. с англ. М.Б. Левина. – М.: ОАО ЛЮКС, 2004. – 349 с. и др.

